ISLOM TARIXI VA FALSAFASI

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi
e-mail: boydedayevdostonbek7@gmail.com.
Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich
Sot.f.b.f.dokt. v.b. dots.
Namangan davlat universiteti, sh. Namangan

Annotatsiya: Ushbu maqolada haq din deya e’tirof etiladigan Islom dinining vujudga kelish tarixi hamda Islom dinining falsafiy jihatlari, mohiyati va o‘ziga xosliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Islom dini, Muhammad (s.a.v.), Arab xalifaligi, haq din, Alloh, Arabiston yarimoroli, badaviylar, qurayshiylar, Qur’oni Karim, payg‘ambar, Makka, Madina.

ISLAMIC HISTORY AND PHILOSOPHY

Abstract: This article talks about the history of Islam, which is recognized as the true religion and the philosophical aspects, essence and peculiarties of Islam.

Key words: Islam, Muhammad (pbuh), Arab caliphate, true religion, Allah, Arabian peninsula, Bedouins, Quraish, Holy Qur’an, prophet, Mecca, Medina.

Kirish: Milodiy VII asrda vujudga kelgan Islom dini tez fursatlarda anchayin katta hududlarga yoyildi hamda ulkan hududlardagi ko‘plab aholini yagona din, yagona mafkura asosida birlashtirishga hamda adolatli jamiyat hamda adolatli turmush tarzi kabi g‘oyalarni insonlar ongiga singdirishga asos bo‘ldi. Bu borada insonlarni o‘ziga tortgan hamda ularni ishontira olgan asosiy omillar sifatida ushbu dinning asl mohiyatidagi soflik, Islom dinining muqaddas kitobi- Qur’oni Karim, Allohning rasuli hisoblangan- Muhammad (s.a.v.) hamda undan keyingi choryorlar, ya’ni 4 xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmon, Alini keltirish mumkin. Falsafiy jihatdan ham mukammal tizimga ega bo‘lgan ushbu din Alloh tomonidan insonlarga taqdim etilgan eng so‘nggi va haq din hisoblanadi.

Asosiy qism: Jahonda qariyb 1,8 milliard kishi islomga e’tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko‘prog‘i Osiyoda yashaydi va bu qit’a aholisining 20% dan ortiqrog‘ini tashkil etadi[1]. Xo‘sh bu ulkan din qanday shakllanish tarixiga ega?

Islom (arabcha, “bo‘ysunish”, “itoat etish”)- jahondagi keng tarqalgan uch dindan biri[2]. Ushbu dinga e’tiqod qiluvchilar muslim, musulmon deb ataladi. Bu

dinning payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) hisoblanadi. Dinning muqaddas kitobi- Qur’oni Karim hisoblanadi.

Qur’on- arabcha, “qiroat”, “o‘qish” degan ma’noni anglatadi. Qur’oni Karim islom dinining muqaddas kitobi hisoblanib, 610-yildan Muhammad (s.a.v.) vafotiga qadar nozil qilingan. 114 ta suradan iborat.

Islom dinining asoschisi- Muhammad (s.a.v.) 570-yilda Makka shahrida Qurayshiy qabilasining Hoshimiy urug‘ida tavallud topadi. Tug‘ilishidan avval otasi- Abdulloh, 6 yoshligida onasi- Omina vafot etadi. Keyin bobosi Abdulmutalib uni o‘z tarbiasiga oladi. Lekin 8 yoshligida bobosi ham vafot etadi. Shundan so‘ng Muhammad (s.a.v.) ni amakisi Abu Tolib o‘z tarbiyasiga oladi. Payg‘ambar poda boqish bilan juda erta mehnat faoliyatini boshladi. Bu uni kamtarlikka va har qanday mehnatni qadrlashga o‘rgatdi.

Payg ‘ambar 40 yoshga yaqinlashganda, ya’ni 610-yil Ramazon oyining 17-kunida Jabroil alayhissalom orqali Allohdan “Alaq” surasining 5 oyati u kishiga birinchi vahiy bo‘lib keladi[3]. Shundan so‘ng 23 yil davomida Qur’oni Karim nozil bo‘ldi va Islom dini uchun asos bo‘ldi.

Shundan so‘ng Muhammad (s.a.v.) Makka shahrida yakka Xudoga asoslangan din targ‘ibotini boshladi. Dastlabki yillarda juda oz kishi uning izidan borgan. Ayni vaqtda qurayshiylarning ummaviylar xonadoniga mansub bo‘lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan zodagonlar bu targ‘ibotga jiddiy qarshilik ko‘rsatgan. Keyinroq, Makkada ahvol keskinlashgach, Muhammad (s.a.v.) ma’lum davrlardan buyon Makka hukmronlari bilan raqobatlashib kelgan Madinadagi Avs va Xazraj qabilalarining vakillari bilan muzokaralar olib borgan va ularning yordami bilan Madinaga ko‘chib ketgan. 622-yilda yuz bergan bu ko‘chishdan so‘ng musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlangan. Makkadan ko‘chib borganlar islom tarixida “muhojirlar”, islomni qabul qilgan madinalik qabilalar esa “ansorlar” (yordamchilar) degan nom olgan[4].

Hijratning ikkinchi yilida jihot farz qilindi. Muhammad (s.a.v.) ishtirok etgan janglar g‘azot, lashkar yuborgan janglari “surayya” deb nomlangan. Shundan so‘ng, musulmon qo‘shinlari Madina davlati atrofidagi arab qabilalariga yurishlar qilib, ularning ko‘plarini o‘ziga bo‘ysundirgan.

630-yil bahorida Madina qo‘shinlari Makkaga yaqinlashib, hech qanday qarshiliksiz shaharni bosib oladi. Shu vaqtdan boshlab Muhammad (s.a.v.) bilan Makka hukmdorlari o‘rtasida raqobat va qarama-qarshilik ham tugagan.

Muhammad (s.a.v.) 632-yil iyun oyida Madinada vafot etgan. Bu davrga kelib anchagina mustahkamlangan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat Yamandan Sino yarimoroligacha, Qizildengiz sohillaridan markaziy qum sahrosigacha cho‘zilgan hududni o‘z ichiga olgan. Muhammad (s.a.v.) vafotidan so‘ng davlat tepasiga uning eng yaqin safdoshi Abu Bakr keladi va mamlakat Arab

xalifaligi deb atala boshlaydi. Hukmdor xalifa deb atalgan, bu so‘z arabchada “o‘rinbosar” degan ma’noni anglatar edi. Abu Bakr davrida butun Arabiston yarimoroli islom dini asosida birlashtiriladi. Keyingi xalifalar: Umar, Usmon, Ali davrida ham ko‘plab hududlar bosib olinishi natijasida Arab xalifaligi juda ham katta hududlarni egallagan ulkan davlatga aylanadi. Jumladan, xalifa Usmon davrida Qur’oni Karim yagona kitob holiga keltiriladi.

Jumladan, bizning yurtimizga ham bosqinlar bo‘ladi. Arablar dastlab Movarounnahrga uni bosib olish uchun emas, balki islom dinini yoyish jihatidan tayyorgarlik ko‘rish, mahalliy hukmdorlarni sinash maqsadida yurish qiladilar. Movarounnahrga ilk bor hujumlar 654-yilda Maymurg‘ va 667-yilda Chag‘oniyondan boshlanadi[5].

VIII asr boshlarida arablar Movarounnahr hududini to‘liq bosib olishga kirishadilar va bu ishni Qutayba ibn Muslimga topshiradilar. 705-yilda Balxni egallashdan boshlagan Qutayba oxir-oqibat Movarounnahr hududlarini to‘liq egallaydi.

Islom dini shu tariqa ko‘plab hududlarga yoyiladi. Ushbu din falsafiy jihatdan ham anchayin mukammallikka ega. Mohiyatan olib qaraganda ham islom dini mukammal din hisoblanadi. Islom dinining falsafiy-mafkuraviy jihatlariga to‘xtalib o‘tilganda tasavvuf, kalom, farz, sunnat, savob, gunoh kabi bir nechta omillarga to‘xtalib o‘tish mumkin. Albatta, islom dini falsafiy jihatlarining yanada sayqallanib, yanada mukammallashishida yurtimiz hududidan chiqqan olimlar ham katta xissa qo‘shgan.

Kalom (arabcha- gap, nutq, bayon)- islomiy e’tiqod va dunyoqarashga oid masalalarni aqliy mulohazaga tayanib dalillash va xulosalashdir[6].

Dastlabki davrlarda islom dini ta’limoti aql va tafakkurga tayanib emas, ilohiy ko‘rsatmalarga, faqat Qur’on va Sunna ta’limoti bilan cheklangan. Abu Hanifaning e’tiroficha, kalom ilmini Amir Ubayd boshlab bergan. Kalom munaqqidlari fikricha, Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda islom ta’limoti, mafkurasi, e’tiqodiy-nazariy qarashlar bayon etilib, har qanday diniy, falsafiy, mantiqiy, aqliy nnazariyalar bekor qilingan.

Kalom ilmida bizning yurtimizdan yetishib chiqqan Abu Mansur Moturudiyni alohida ta’riflash joiz. Chunki Moturudiy kalom ilmi ravnaqiga katta xissa qo‘shganlardan hisoblanadi. Moturudiydan tashqari Abulhasan Ash’ariy, Abu Bakr ar-Roziy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, ibn Rushd, ibn Xaldun, Jurjoniy kabi olimlarni ham keltirib o‘tish mumkin. Moturudiy murakkab, tahlikali zamonda o‘zining sof qarashlarini ifoda eta olgani sababli “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan.

Kalom Muhammad payg‘ambar asoslagan islom dini ta’limotining bir yo‘nalishi sifatida vujudga keldi. Kalom ta’limoti tarafdorlari mutakallimchilar deb ataldi[7].

Ularning qarashlari bo‘yicha, Qur’on Alloh tomonidan osmondan tayyor holda tushurilgan muqaddas kitob bo‘lib, Allohning so‘zidir. Dunyo Alloh tomonidan yaratilgan sanoqsiz atomlar yig‘indisidan iborat. Ular Alloh xohishiga ko‘ra bo‘shliqda harakat qiladi, o‘zaro bir-biri bilan qo‘shiladi, paydo bo‘ladi yoki yo‘qlikka aylanadi. Dunyoda tanho, azaliy va abadiy mavjud, buyuk yaratuvchi quvvat-Allohning o‘zi va uning xohishidir. Mutakallimchilar insonning dunyoni bilish qobiliyatini inkor etadilar. Uni ojiz banda deb ta’riflaydilar.

Bu borada VIII asr o‘rtalarida alohida oqim vujudga keladi. Ular mu’tazilachilar deb ataladi. Mu’tazila (arabcha- ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar degani)- mutakallimchilar ta’limotiga qarshi bo‘lgan mutafakkirlar bo‘lib, ilk islom falsafasidagi ilohiyotchi oqimlardan biri hisoblanadi.

Islom ta’limotida shirk, kufr kabi salbiy jihatlar hamda qiyomat- muqarrar hodisaga ham to‘xtalib o‘tilgan:

Shirk (arabcha- birga qatnashish, sheriklik; Allohning sherigi bor deb hisoblash, ko‘pxudolik)- shirk keltirish. Shirkning she’riy tushunchasi- Allohning zoti, sifatlari, ismlari, ishlari va hukmlarida sherigi bor deb e’tiqod qilish. Islomda shirk kechirilmas gunoh hisoblanadi. Shirkning turlari:

1. Ibodatda shirk keltirish;
2. Duoda shirk keltirish;
3. Rabbiylikda shirk keltirish;
4. Hukmda shirk keltirish;
5. Mulk va sultondagi shirk keltirish;
6. Xalq- yaratishdagi shirk keltirish;
7. Itoatda shirk keltirish;
8. Tangriga shirk keltirish.

Kufr (arabcha- yashirish; noshukrchilik; kofirlik)- islomiy e’tiqodga ko‘ra, islom dinini yoki Alloh, borliq va inson to‘g‘risidagi islomiy dunyoqarashni tan olmaslik, yagona Alloh, uning farishtalari, payg‘ambarlari, ilohiy kitoblari, qazo va qadariga ishonmaslik hamda bunday dunyoqarash hamda aqidaga qarshi kurashish; imonsizlik, kofirlik, ko‘p hollarda kufr Allohga ishonmaslik hisoblanadi. Kufrning 3 turi mavjud:

1. Haqiqiy kufr- dilida ham, tilida ham o‘zining kofirligini inkor etish.
2. Inodiy kufr- Allohning haqligini, Muhammad (s.a.v.)ning haqiqiy payg‘ambarligini bila turib, qaysarlik qilib, imon keltirmaslik.
3. Hukmiy kufr- ba’zan shariatga xilof ishlarni qilish yoki kufr so‘zlarini bilib-bilmay gapirib qo‘yish sababli kufrga hukm qilinuvchi holat.

Qiyomat (arabcha- o‘liklarning tirilishi; tik turishi, o‘rindan turishi)- ko‘plab diniy ta’limotlar, jumladan islomda ham dunyoning tugashi va oxirat kunining boshlanishi haqidagi ta’limot. Bu ta’limot Qur’on suralarida oxirat kunining boshlanishi bilan bog‘liq dahshatli hodisalar, barchaning halok bo‘lishi, keyin

odamlarning tirilishi, o‘rindan turishi, birma-bir so‘roq qilinib, savob va gunohlar o‘lchanishi, shunga qarab odamlarning jannat yoki do‘zaxga kiritilishi, do‘zax azoblari va jannat rohatlari va hokazolar bayon etilgan.

Abu Bakr ar- Roziy kompozitisiyaga oid asarida atomizm haqidagi zamonaviy ilohiyot bahslari ta’siri ko‘rinadi. Shuningdek, islom olamidagi falsafiy oqimlarda nasroniy va yahudiy qarashlari ham ma’lum darajada ishtirok etgan[8].

Islom ta’limotida jannat va do‘zax masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi:

Jannat (arabcha- bog‘, bo‘ston)- taqvodor insonlar narigi dunyoda rohat va farog‘atda yashaydigan joy. Qur’onda jannat haqida bir necha yerda bayon qilingan (47: 15-55, 46-78; 76:11-12). Islom dini aqidasi bo‘yicha, bu dunyodagi hayoti davrida imonli holida ezgu ishlar bilan shug‘ullangan kishilarga jannatdan joy beriladi. Jannatda hayot abadiy bezavoldir. Jannatning 8 ta eshigi bor deb fikr yuritiladi.

Do‘zax (forscha, arabcha- nor, jahannam, jahim)- din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy. Islom dinidagi asosiy tushunchalardan biri. Qur’onda do‘zax haqida bir necha o‘rinda ta’kidlab o‘tilgan (6: 128; 11: 106, 107). Do‘zax Alloh kofirlar va gunohkor bandalarga jazo berishi uchun yaratilgan. Diniy tasavvurga ko‘ra, do‘zax dahshatli chuqurlik, ichida olov yonib turadi. Do‘zax bir necha tabaqadan iborat bo‘lib, har bir gunohkor o‘z gunohiga qarab tabaqalarda jazolanadi. Islom diniga ko‘ra do‘zaxning 7 ta darvozasi bor.

Xulosa: Ko‘rinib turibdiki, islom dini har taraflama mukammal, kamchiliklarsiz din hisoblanadi. Xoh ilmiy jihatdan, xoh falsafiy jihatdan, xoh diniy ta’limot nuqtayi nazaridan olib qaralsa ham islom dinidagi ajoyib tizimni, aniqlikni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan Qur’onni mukammal orqali inson ko‘p tomonlama muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Oddiy misol, Qur’onni bilish, uning mohiyatini anglash orqali inson ruhiy, ma’naviy, aqliy barkamollikka erishadi. Insonda iroda, sabr-toqat, matonat kabi ijobiy hislatlarning yanada sayqallanishi kuzatiladi. Insonlarda Allohga, uning taqdiriga ishonch, yomon qilmishlar uchun Alloh oldida shaxsiy javobgarlikni anglab yetish va buning natijasida Allohning hukmidan qo‘rquv kabi tuyg‘ular kuzatiladi. Natijada insonlar o‘z-o‘zidan yomon ishlardan, umuman olganda gunoh qilishdan tiyilishadi. Insonlarni yomon yo‘ldan qaytargani, yaxshi yo‘lga yetaklagani uchun ham islom dini haq din, adolatli din hisoblanadi.

Islom dinida har bir muslim va muslima uchun farz hisoblangan 5 vaqt namozda ham ulkan hikmat jamlangan. Namoz inson ruhini yuksaltiradi. Olimlarning aytishlariga qaraganda namoz eng yaxshi gimnastika ham hisoblanadi. Ya’ni sajda, ruku kabi namoz amallarini bajarish jarayonida inson tanasi uchun foydali hisoblangan hamda tananing ijobiy ritmini bir maromda saqlash uchun foydali hisoblangan jarayonlar sodir bo‘ladi.

Islom dini barcha hayrli diniy va dunyoviy g‘oyalarni qo‘llab- quvvatlashi bilan alohida ajralib turadi. Bular qatoriga ilm olish, oila muqaddasligi, ayolga ehtirom, ota- onaga hurmat, farzand oldidagi ota- onaning burchi kabilarni kiritish mumkin. Masalan, islom dinining muqaddas manbalarida aytilishicha ilmni kerak bo‘lsa Chin-mochinga borib bo‘lsa ham olish kerak. Islom dini har bir musulmon uchun ilm olishni farz deb e’lon qilyapti. Shuning uchun ham bu din ulug‘vordir.

Dinda ota-onaga hurmat masalasi ham juda go‘zal bayon etilgan: “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” degan ta’rif ham bejiz ishlatilmagan. Islom dini orqali bizga ma’lum bo‘ladiki, farzand o‘z ota-onasini Hajga qadar o‘z yelkasida ko‘tarib olib borsa ham ota-ona oldidagi qarzini ado etolmaydi. Ota ham dinda shu darajada ulug‘langanki, xatto farzandga o‘z otasinining yuziga tik boqish, gapini inobatga olmaslik qat’iyan ta’qiqlanganini ko‘rish mumkin. Ota-ona duosi farzand muvaffaqiyatlarining kaliti ekanligi ham alohida ta’kidlab o‘tiladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda ko‘plab g‘arb mamlakatlaridan farqli o‘laroq aholisining katta qismini musulmonlar tashkil etadigan islom mamlakatlarida ota-onaga bo‘lgan hurmat-e’tibor, farzand tarbiyasi, oilaga sadoqat, adolatli turmush tamoyillari bilan butun jahonga namuna bo‘la olmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/islom/.
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islom.
3. С. Окилов. Ислом дини тарихи ва фалсафаси. Т. –Б. 5.
4. A. Sarimsakov/N. Dexkanov. Jahon tarixi/Osiyo va Afrika mamlakatlarining o‘rta asrlar tarixi. T.: O‘zkitob savdo, -2021. –B. 62.
5. A. Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi. T.: Sharq, -2017. –B. 28.
6. I. Saifnazarov. Falsafa. T.: Innovatsion rivojlanish, -2021. –B. 249.
7. E. Yusupov. Falsafa. T.: O‘qituvchi, -2005. –B. 46.
8. https://www.britannica.com/topic/Islamic-philosophy.